

Muxtorova Mohidil Vohid qizi

FarDU 2-kurs talabasi

NAVOIY VA XALQ OG‘ZAKI IJODI MUNOSABATLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida xalq og‘zaki ijodi an‘analarining o‘rni va ahamiyati, Navoiyning xalq og‘zaki ijodi namunalariidan mohirona foydalanganligi, qolaversa, turkman xalqining hazil-mutoyiba qahramoniga aylanganligi tahlilga tortilgan. Bundan tashqari, og‘zaki adabiyot namunalariining Navoiy ijodiga bo‘lgan ta‘siri haqida mulohazalar ham tadqiqotning asosiy vazifalaridandir.

Kalit so‘zlar: Navoiy merosi, folklor, yozma adabiyot, timsol, afsona, doston, yaxshilik va yovuzlik dualizmi, latifa.

KIRISH

Alisher Navoiy — g‘azal mulkinging sultoni, turkiy til asoschisi, 20 jildlik mukammal asarlar to‘plami egasi bo‘lib, turkiy xalqlar adabiyotining eng yirik namoyondasidir. Uning “Xamsa” si ham shu yo‘nalishda yozilgan turkiy tildagi ilk beshlik edi. Navoiy shaxsi va ajoyib fazilatlarini, boy ijodiy merosi bilan dunyo xalqlari uchun namuna hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodi xalqlarning asrlar davomida yaratgan, avlodlardan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan ma‘naviy merosi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi afsona va rivoyatlar, ertaklar, dostonlar, maqollar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat bo‘lib, bular xalq ommasining ijodiy-badiiy faoliyati natijasida yaratilgan.

Alisher Navoiydan ilmiy va diniy adabiyotlar, badiiy asarlar, she‘riy dostonlar meros qoldi, adib bu ijodiy merosi bilan nafaqat turkiy adabiyotni, balki jahon adabiyotini ham boyitgan. Ijodkor asarlarida xalq og‘zaki badiiy ijodining ta‘siri ham bor bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalari voqealari, qahramonlari, hazil-mutoyibalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning urf-odat va orzu-umidlari, donishmandligi, ijodiy yetukligini o‘zida mujassam etgan. Og‘zaki ijod namunalariiga umuminsoniy qadriyatlar, milliy ruh singdirilgan bo‘ladi. Darvoqe, Alisher Navoiy “Xamsa”siga kirgan dostonlarning syujet voqealari yozma adabiyotga kiritilishidan avval, dunyo xalqlar folklorida yashab kelgan afsona, ertak, rivoyatlar qatorida mavjud edi. Jumladan, muallif Sharq xalqlari og‘zaki adabiyotida mavjud bo‘lgan “Xusrav va Shirin” qissasini qayta ishlab, ilk marta turkiy tilda “Farhod va Shirin” yozma dostonini yaratdi, Farhod va Shirinni dostonning bosh qahramonlari sifatida tasvirladi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni ham ilk marta turkiy tilda arab xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan afsonadan foydalanib yaratilgan dostonidir. “Alisher Navoiy xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an‘analardan ijodiy foydalangan holda o‘z dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi”. [1.118]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan eng qadimgi, aziz va ommaviy janr hisoblanadi. “Ularda tarixiy hayotda ro‘y bermagan bo‘lsa-da, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi”. [2.49] Afsona so‘zi forscha bo‘lib, yo‘q narsani bor qilib ko‘rsatish, ya‘ni to‘qish, uydirma qilish ma‘nosini anglatadi va nomidan anglashilganidek xayolot, uydirma va to‘qimalardan iborat bo‘ladi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini aynan eroniy xalqlar og‘zaki adabiyotlarida mavjud bo‘lgan Xusrav va Shirin nomidagi ishqiy qissa va afsonalarga asoslanib yaratgan. Bu xalq qissalari ilk marta fors-tojik yozma adabiyotiga olib kirilgan edi . “Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” dostonida yozib qoldiradi ”. [1.101]

Sharq xalqlari orasida qushlar haqida turfa xil afsonalar mavjud, masalan, Humo qushi (kimning boshiga qo‘nsa yoki soyasi tushsa, u kishi eng baxtli bo‘ladi, davlat va saltanatga erishadi, deb e‘tiqod qilingan afsonaviy qush), Samandar qushi (o‘tdan paydo bo‘lib, o‘t ichida yashovchi qush), Qaqnus(uzoq umr ko‘radigan, o‘limdan keyin qayta tug‘iladigan qush) va Semurg‘ qushi (sharq xalqlari og‘zaki ijodidagi afsonaviy qush obrazi bo‘lib, osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarning ramziy ifodasi sanalgan) Sharq xalqlari og‘zaki ijodidagi afsonaviy qushlardan. Semurg‘ timsoli o‘zbek xalq dostonlarida, jumladan, “Rustam” dostoni, “Kenja botir” ertagida ham tasvirlangan. “Kenja botir” ertagida Kenja botir yer ostiga — devlar yeriga tushib qolganda Semurg‘ qushi bilan bog‘liq lavhalar beriladi:

-O‘g‘lim, mana shu yo‘l bilan ehtiyot bo‘lib borasan. Uzoqda bir chinor ko‘rinadi. Shu chinorda Semurg‘ qushning uyasi bor. Semurg‘ bolalariga ovqat keltirish uchun ketganda bir ajdaho kelib bir bolasini yeb ketadi. Agar sen botir bo‘lsang, shu ajdahoni o‘ldirsang, balki Semurg‘ seni yer yuziga olib chiqib qo‘yar...Ertak yakunida Kenja botir Semurg‘ning bolalarini, Semurg‘ Kenja Botirni qutqaradi .

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr“ asari asosida ham qushlar bilan bog‘liq qadimiy qissa va afsonalar yotadi. Xususan, barcha qushlar afsonaviy qush – “Semurg‘”ni izlab safarga chiqadilar. Qushlarning safar qiyinchiliklariga sabr qilib, mashaqqat bilan intilgan manzillari o‘zlari edi. Safar so‘ngida faqat o‘ttiz qush qolganligi ma‘lum bo‘ladi. O‘ttiz qush farschada “Si murg‘” dir. “Safar chog‘ida Simurg‘ asli o‘zlari ekanliklarini, bu safar sadafning gavhar bo‘lmog‘i uchun dunyo-yu nafs mayllaridan kechib, Haqiqiy o‘zlikni topish uchun bo‘lganligini anglab yetadilar. Ular qayerga boqmasinlar, u yerda o‘zlarining akslarini ko‘ra boshlaydilar. Navoiyning o‘zi buni so‘z o‘yini vositasi bilan yakunlaydi. Bu dostonning falsafiy-g‘oyaviy yakuni ham edi.[1.101]

Zamonaviy adabiyotimizda ham Semurg‘ afsonaviy qushi timsoli qalamga olingan. Navoiyning “Lison ut-tayr” asari , qadimiy Semurg‘ haqidagi afsona va qissalar asosida Hamid Olimjon tomonidan 1939-yilda adabiyotimizda “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” asari yozildi:

Qanotga chiqdi Bunyod,

Ko‘zini chirt yumdi bot.

Va Semurg‘ qildi parvoz,

Dunyoni tutdi ovoz.

Hamid Olimjon “ Semurg‘” she‘ri

Shubhasiz, mana shunday she‘r va dostonlarning yaratilishida xalq ijodidagi afsona, asotir, qissa va boshqa janrlarning o‘rni beqiyos.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalq og‘zaki ijodining asosiy mavzulari yaxshilik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi kurashlar edi. Yaxshilik va yomonlik — biri birini taqozo va inkor etib turadigan ikkilik. Yaxshilik — insonga xos eng muhim xislatlardan biri bo‘lib, insoniylikning asosiy mohiyatini belgilab turadi. Ayni chog‘da, yomonlik ezgulikning zididir. Qadimdan xalq og‘zaki ijodining afsona, mif, ertaklarida yovuzlik va ezgulik kurashi maydonga kelgan. Xususan, Sharq xalqlarida yovuzlik timsollari ko‘pincha devlar, ajdar, jin, yalmog‘iz kampir va boshqalar qiyofasida namoyon bo‘lgan. Mana shunday afsonalar xalq og‘zaki ijodida qayta-qayta ishlanib, asrlardan asrlarga, asarlardan asarlarga o‘tib, yashab keldi. Qolaversa, bu voqealar yozma adabiyotga ham kirmay qolmagan.

Yaxshilik va yomonlik juftligi, ular bilan bog‘liq afsonalar, qissalar, yomonlik timsollari Alisher Navoiy asarlarida ham uchragan. Ijodkor asarlarida ulkan devlar, ajdar, ya‘juj-ma‘juj, mo‘rlar(chumolisimonlar) kabi mifologik timsollar tasviri bor. Bu timsollar asarda ma‘lum vazifalarni bajaradi. Qahramonlar xarakterini aniqlashtirish yoki ular bilan bog‘liq hodisalarni ochib berishga xizmat qiladi. Alisher Navoiy mazkur timsollardan maqsadli foydalanib, asarlarining g‘oyasini yanada ochib, aniq ifodalashga erishgan. Aynan Alisher Navoiy asarlarida ko‘p uchraydigan mifologik obrazlardan biri dev bo‘lgan. “Lison ut-tayr” dostonning 2-bobi munojotni o‘z ichiga oladi, unda shunday bayt bor:

Bir amal hargiz riyosiz qilmadim,

Zarqsiz hargiz o‘zumni bilmadim.

O‘ylakim mendurmen, inson bo‘lmasun,

Yo‘qki inson, devu shayton bo‘lmasun.

“Farhod va Shirin” dostonida ham bir qancha afsonaviy- mifologik timsollar mavjud. Bulardan biri Yosuman kampiridir. Yosuman — folklor va yozma adabiyotda makkorlik ramzi bo‘lgan salbiy obraz, u afsona, ertak va dostonlarda jodugar va hiylagar kampir obrazini gavdalandiradi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Yosuman kampir yengilmas Farhodni hiyla bilan aldaydi. Alisher Navoiy asarlarida yovuzlikning timsoli bo‘lgan obrazlardan yana biri ajdardir. “Farhod va Shirin” dostonida Farhod va ajdarhoning jangiga butun bir bob bag‘ishlangan. Farhod safar davomida yovuzlikning yana bir kuchi — temir odamga duch keladi. Lekin u qahramonlik ko‘rsatib, yo‘lidagi ajdar va devlarni yengib, ko‘zlagan maqsadiga erishadi. “Alisher Navoiy lirikada fikr va kechinmalarini bayon etishda devdan an‘anaviy obraz sifatida foydalansa, epik asarlarida syujet va kompozitsiyada, voqealar rivojida foydalanadi” . [3.]

Alisher Navoiy xalq orasidagi hazil-mutoyibalardan ham barakali foydalangan. O‘z navbatida, Navoiy bilan Binoiy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan kulgili suhbatlar ham ma‘lum va mashhurdir. Vaqtlar o‘tib borishi bilan Alisher Navoiy turkman adabiyotiga Mirali nomi bilan kirib bordi. Mirali — turkman xalq ijodidagi turkum afsona, satirik ertak va latifalarning bosh qahramoni. Mirali Alisher Navoiy, Sulton Suyun Husayn Boyqaro prototipiga asoslangan deyiladi. Bu qahramonlar ishtirokidagi ertak va latifalar mazmuni aqliy tortishuvlar asosiga qurilgan bo‘lib, ularda tuhmat, yolg‘on kulgi vositasida fosh etiladi, ikki tarixiy shaxsning do‘stligi esa ulug‘lanadi. Turkman xalqining Mirali qahramonida donolik, tadbirkorlik, so‘zga chechanlik kabi fazilatlar mujassam. Bu kabi timsollar badiiy adabiyot, folklor merosi, milat hayotida ham muhim estetik ahamiyat kasb etaveradi.

XULOSA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida xalq og‘zaki ijodi an‘analarining tutgan o‘rni va ta‘sirini ochib berishga harakat qilindi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida va o‘zbek mumtoz adabiyotida insonlarni tarbiyaga, odob-axloqqa chorlovchi, manaviy va ma‘rifiy g‘oyalarga ega asarlar yaratiladi. Eng muhimi, yozma adabiyot namunalari ham xalq og‘zaki ijodi namunalari,

ulardagi syujet va qahramonlarni o'zida mujassam etgani bilan o'ziga xoslikka ega. Hazrat Mir Alisher Navoiyning adabiy merosi millatimiz, balki butun dunyo adabiyotining xazinasiga aylangan. Eng asosiysi shuki, Navoiy asarlarida hamma uchun ma'lum bo'lgan xalqona ohanglardan, xalq ijodi namunalaridan samarali foydalangan. Bu esa asarlarini xalqqa yanada yaqinlashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Sirojiddinov Sh, Navoiyshunoslik.—Тошкент,«TAMADDUN», 2018. — 520 b
- 2.Madayev O, Xalq og'zaki poetik ijodi: darslik / — T.: «Sharq», 2010. — 208 b
- 3.NAVOIY HIKOYATLARI SHAKLLANISHIDA FOLKLORNING O'RNI Hoshimova Azizaxon <https://cyberleninka.ru/article/n/navoiy-hikoyatlari-shakllanishida-folklorning-o-rni>
- 4.Alisher Navoiy, " Farhod va Shirin " nasriy bayoni. -Toshkent:" Akademnashr", 2015
5. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1976.
- 6."YAXSHILIK" VA "YOVUZLIK" KONSEPTLARINING MILLIY-MA'DANIY XUSUSIYATLARI(INGLIZ VA O'ZBEK AFORIZMLARI MISOLIDA)Normamatov Farrux Komiljon o'g'li <https://cyberleninka.ru/article/n/yaxshilik-va-yovuzlik-konseptlarining-milliy-madaniy-xususiyatlari-ingliz-va-o-zbek-aforizmlari-misolida>
- 7.Internet manbalari.